



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

10 (60) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
М.А. АБДУЛЛАЕВА
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
ХАСАНОВА Д.А.
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN
MUSLUMOV (Azerbaijan) Prof. Dr.
DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

10 (60)

2023

октябрь

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 10.09.2023, Accepted: 20.09.2023, Published: 10.10.2023.

UDK 619:636.32/38-053.31

12 OYLIK CHAQALOQLAR TUXUMDONINING GISTOTOPOGRAFIK TUZILISHI

M.Y. Akramova <https://orcid.org/0009-0003-2372-7536>

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 100140, O'zbekiston Toshkent, ko'ch. Bog'ishamol, 223, tel: 8 71 260 36 58 E.mail: interdep@tashpmi.uz

✓ Rezyume

Ushbu maqolada 12 oylik chaqaloqlar tuxumdoninig gistotopografiyasida yuz beradigan morfologik o'zgarishlarni aniqlashga bag'ishlangan. Material sifatida qorinichi asfiksiya va pnevmonopatiyalardan o'lgan qiz chaqaloqlarning tuxumdoni umumiy gistologiya, gistoximiya va morfometriya usullarida o'rganilgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar tuxumdonining po'stloq qavatida zich holda primordial tuxum hujayralari joylashganligi, mag'iz qavatga chegara sohalarida granulez hujayralar proliferatsiyalanishidan follikulyar tuzilmalar paydo bo'lishi va ularning orasida, ya'ni interstitsiyasida har xil darajada zichlikdagi pregranulez va selemik hujayralar o'rin egallaganligi kuzatiladi. Chaqaloqlarning ilk postnatal davridan boshlab tuxumdonida reproduktiv vazifani bajaradigan primordial tuxum hujayralarning bir qismi destruksiyanib, atreziyanishi, oraliq to'qimasida granulez va teka to'qima hujayralarining ko'payishi kuzatiladi.

Kalit so'zlar: chaqaloq, erta postnatal davr, tuxumdon, ontogenez, morfologiya.

ГИСТОТОПОГРАФИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЯИЧНИКОВ МЛАДЕНЦЕВ 12 МЕСЯЦЕВ

Акратова М.Ю.

Ташкентский педиатрический медицинский институт, 100140, Узбекистан Ташкент, ул. Богишамол, 223, тел: 8 71 260 36 58 E.mail: interdep@tashpmi.uz

✓ Резюме

Эта статья посвящена выявлению морфологических изменений, происходящих в гистотопографии яичников 12-месячных детей. В качестве материала изучались яичники девочек, живот которых умер от асфиксии и пневмоний методами общей гистологии, гистохимии и морфометрии. Отмечается, что в корковом слое яичника новорожденных в плотном состоянии располагаются зачатковые яйцеклетки, фолликулярные структуры образуются в результате пролиферации гранулезных клеток в пограничных с роговым слоем областях, а между ними, т. е. в интерстиции, находятся прегранулезные и целемические клетки различной плотности. С самого раннего послеродового периода у младенцев происходит деструкция и атрезия части зародышевых яйцеклеток, выполняющих репродуктивную функцию в яичнике, гранулез и пролиферация клеток тековой ткани в промежуточной ткани.

Ключевые слова: младенец, ранний послеродовой период, яичник, онтогенез, морфология.

HISTOTOPOGRAPHIC STRUCTURE OF THE OVARIES OF INFANTS 12 MONTHS

Akramova M.Yu.

Tashkent Pediatric Medical Institute, 100140, Uzbekistan Tashkent, st. Bogishamol, 223, tel: 8 71 260 36 58 E.mail: interdep@tashpmi.uz

✓ *Resume*

This article is devoted to the identification of morphological changes occurring in the histotopography of the ovaries of 12-month-old children. As a material, the ovaries of girls whose abdomen died from asphyxia and pneumopathy were studied by methods of general histology, histochemistry and morphometry. It is noted that in the cortical layer of the ovary of newborns, rudimentary eggs are located in a dense state, follicular structures are formed as a result of the proliferation of granulose cells in the areas bordering the stratum corneum, and between them, i.e. in the interstitial, there are pregranular and celemic cells of different densities. From the earliest postpartum period in infants, destruction and atresia of part of the embryonic eggs that perform reproductive function in the ovary, granulosis and proliferation of cells of the uterine tissue in the intermediate tissue occur.

Key words: infant, early postpartum period, ovary, ontogenesis, morphology.

Dolzarbligi

Tuxumdon juft a'zo bo'lib, ikkita muhim vazifani bajaradi: reproduktiv - ayollar jinsiy hujayralarini yaratadi va endokrin - jinsiy gormonlarni sintezlaydi. Ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bo'yicha tuxum hujayrasi faoliyati bilan follikulyar giston o'rtasida struktur-metabolik bog'liqlik mavjud [1, 2]. Endokrin faoliyati ham birlamchi ootsit, follikulyar epiteliy, teka to'qima va sariq tananing morfofunktsional holatiga bog'liq. Embriogenezning 5-haftasida tuxumdon selemik epiteliy, mezenxima, gonotsitlardan paydo bo'la boshlaydi. Selemik epiteliydan follikula epiteliysi va sariq tana hujayralari paydo bo'ladi. Mezenximadan tuxumdon stromasining biriktiruvchi to'qimasi, follikulalar atrofidagi teka to'qima hosil bo'ladi. Gonotsitlardan dastlab oogoniyalar, keyin I va II-qatoridagi ovotsitlar differensiallanadi [4, 5]. Embriogenezning 6-haftasida primordial germinogen hujayralar selemik epiteliyning orasida to'planib, tutamlar ko'rinishida mezenximaga kirib boradi. 7-haftalikda tuxumdon indifferent davridan o'tib, ayollik gonada tuzilishiga kiradi. 12-haftalikdan boshlab tuxumdon to'qimasining tashqi qavati gonotsit va selemik epiteliyning proliferatsiyalanishi hisobiga qalinlashadi. 12-20-haftaliklarda tuxumdonning po'stloq qavati proliferatsiyalangan gonotsit va pregranulez hujayralardan iborat tutamlar ko'rinishida jinsiy bo'lakchalarga bo'linadi. Bu davrda tuxumdon oraliq to'qimasida mayda, oval shakldagi bazofil bo'yalgan yadrolardan iborat teka hujayralari paydo bo'ladi. Tuxumdonning keyingi rivojlanish jarayonida jinsiy hujayralarning bir qismi nobud bo'lib, primordial follikulalar, mag'iz qavatiga yaqin sohalarda yetilgan follikulalar paydo bo'ladi. 32-haftalikka kelib, to'liq yetilgan follikulalar paydo bo'ladi va ulardagi granulez hujayralar 6-8 qatorni tashkil qiladi, atrofiga ichki teka to'qimali parda tashkil topadi.

Tadqiqotning maqsadi. Chaqaloqlar postnatal ontogenezining har xil davrlarida tuxumdonda yuz beradigan gistotopografik o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda deyarlik yoritilmagan [3, 6, 7]. Shuning uchun, ushbu ilmiy tadqiqotda maqsad qilib yangi tug'ilib, 12-oygacha bo'lgan davrda har xil sabablarga ko'ra nobud bo'lgan chaqaloqlar tuxumdoni gistologik jihatdan o'rganishni va reproduktiv va endokrin vazifalarni bajaradigan to'qima tuzilmalarida postnatal ontogenezning erta davrida yuz beradigan gistologik o'zgarishlarni oydinlashtirish olindi.

Material va usullar

Qorinichi asfiksiyasi, pnevmopatiya va pnevmoniyadan o'lgan, jami 98 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlar tuxumdoni tadqiqot materiali sifatida olindi. Chaqaloqlar tuxumdoni o'rtasidan ikkiga bo'linib, kesilgan tomoni yuzaga qaratib 10% neytrallangan formalinda 48 soat qotirildi. Oqar suvda 2-4 soat davomida yuvilib, konsentratsiyasi oshib borgan spirtlarda va xloroformda suvsizlantirildi va parafin quyilib, g'ishchalar tayyorlandi. Parafinli g'ishchalardan qalinligi 5-7 mkm bo'lgan gistologik kesmalar gematoksilin-eozin bo'yog'i bilan bo'yaldi. Tuxumdon to'qimasi tarkibidagi biriktiruvchi to'qima tolali tuzilmalari pikrofuksin bilan Van-Gizon usulida, nordon glikozaminglikanlar altsian ko'ki bilan bo'yilib, o'rganildi. Gistologik preparatlar binokulyar yorug'lik mikroskopida ko'rib, o'rganilib, kerakli sohalari rasmga tushirildi.


Natija va tahlillar

12 oylik chaqaloq tuxumdoni gistotopografik jihatdan o'rganilganda oldingi davrlariga nisbatan ham po'stloq, ham mag'iz qavatlarida sezilarli darajada to'qima tuzilmalarining takomillashganligi kuzatiladi. Bu davrda tuxumdon po'stloq qavatida primordial tuxum hujayralar soni sezilarli darajada


kamayganligi, ulardan ayrimlari atreziyalanganligi, vakuolizatsiyalanganligi aniqlanadi. Tashqi yuzasidagi oq pardani tashkil qilgan biriktiruvchi to'qimali pardasi biroz qalinlashgan, tarkibida tolali tuzilmalar ko'payganligi kuzatiladi. Primordial tuxum hujayralar siyraklashib, orasidagi biriktiruvchi to'qima ham hujayralari, ham tolalai tuzilmalari ko'payib, har xil yo'nalishdagi tutamlarni paydo qilganligi topiladi. Interstitsial biriktiruvchi to'qimali tutamlar po'stloq qavatning chuqur joylashgan qismida nisbatan zichroq tuzilishga eagaligi kuzatiladi (1-rasm). Tuxumdon po'stloq qavati to'qimasini pikrofuksin bilan van-Gizon usulida bo'yab ko'rilganda ma'lum bo'ladiki, po'stloq qavat oraliq to'qimasi har xil yo'nalishda joylashgan pikrofuksin bilan qizil rangga bo'yalgan kollagen tolalar mavjudligi aniqlanadi (2-rasm). Tolali tuzilmalarning ko'payishi va har xil yo'nalishdagi tutamlari primordial tuxum hujayralarni alohida guruhlarga ajratib, o'rab olganligi aniqlanadi. Pikrofuksin bilan to'q qizil rangga bo'yalgan kollagen tolalar tashqi oq pardada zichligi va ko'pligi aniqlanadi. Mag'iz qavatga o'tgan sohasida esa siyraklashib, kamayganligi topiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bolalarning chaqaloqlik davrida tuxumdon to'qimasi nisbatan nordonroq va unda nordon glikozaminglikanlar miqdori ustun turadi. Bu holatni aniqlash maqsadida tuxumdon to'qimasini altsian ko'ki bilan bo'yalganda po'stloq qavati to'qimasi zich bo'lganligiga qaramasdan uning oraliq moddasida nordon glikozaminglikanlar to'planganligidan ko'k rangga bo'yalganligi tasdiqlaydi (3-rasm). Primordial tuxum hujayralar kam sonli va vakuollashgan holatda bo'lsada, ularning atrofida altsian bilan ko'k rangga bo'yalgan nordon glikozaminglikanlar to'planganligi aniqlanadi. Quyidagi ma'lumot aniqlandiki, po'stloq qavatning mag'iz qavatga tutashgan chegarasi to'qimasi tarkibida nordon glikozaminglikanlar kamligidan bu soha ochroq bo'yalganligi kuzatiladi. Xuddi shunday o'zgarish, ya'ni nordon moddalarning kamligi tuxumdonning mag'iz qavati to'qimasida ham aniqlanadi. Mag'iz qavat to'qimasidagi nordon moddalar ayrim joylarda ko'proq, boshqa joylarda kamroq to'planganligi aniqlanadi.


Bu yoshdagi chaqaloqlar tuxumdon po'stloq qavat to'qimasi mikroskopning katta ob'yektivida o'rganilganda ma'lum bo'ldiki, primordial tuxum hujayralar har xil darajada o'zgarishlarga uchraganligi, ayrimlari vakuollashib, kattalashganligi, boshqalari atreziyalanib, bujmayganligi, yana birlari chandiq to'qimaga aylanganligi aniqlanadi (4-rasm). Bunda, yana bir ahamiyatli o'zgarish tuxum hujayralar oralig'idagi biriktiruvchi to'qimada yuz berganligi kuzatiladi.




1-rasm. 12 oylik chaqaloq tuxumdoni, po'stloq qavatida primordial tuxum hujayralar kamaygan, oraliq biriktiruvchi to'qimasi ko'paygan. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x10.



2-rasm. Tuxumdon po'stloq qavatida kollagen tolalarning betartib joylanishi. Bo'yoq: van-Gizon. Kat: 10x10.




Biriktiruvchi to'qima hujayralari faollashganligi, ularning yadrolari faollashib, gipertrofiya va giperxromaziyalanganligi bilan tasdiqlanadi. Hujayralar orasida kollagen tolalari turli darajada takomillashganligi, ayrimlari tolali tutamlar ko'rinishida bo'lsa, boshqalari yangi paydo bo'lgan gomogen moddalardan iboratligi aniqlanadi. Bu yoshdagi bolalar tuxumdoni po'stloq qavati mikroskopning katta ob'yektivida chuqurroq o'rganilganda shu holat aniqlandiki, po'stloq qavatning interstitsial to'qimasida kuchli darajada biriktiruvchi va teka to'qimasining o'sib ko'payganligi kuzatiladi (5-rasm). Gipertrofiyalanib faollashgan biriktiruvchi to'qima hujayralari va tolali tuzilmalardan iborat tutamlar har xil yo'nalishda joylashgan bo'lib, to'qima tarkibida monotsitar va limfotsitar hujayralar paydo bo'lganligi aniqlanadi. Bunday keng tarmoqli rivojlangan biriktiruvchi to'qima tutamlari orasida morfologik jihatdan o'zgarigan primordial tuxum hujayralari joylashganligi va ularning aksariyati vakuollashib, pufakka aylanganligi aniqlanadi. Tuxumdon po'stloq qavati interstitsiyasida biriktiruvchi to'qimaning o'sib ko'payganligini gistokimyoviy usul, ya'ni pikrofuksin bilan bo'yab ko'rilganda oraliq to'qimada pikrofuksin bilan qizil rangga bo'yalgan tolali tuzilmalarining ko'payganligi tasdiqlaydi (6-rasm). Yuqorida qayta-qayta ta'kidlanganidek, bir yoshgacha davrda chaqaloqlar tuxumdoni to'qimasi nordonligi va unda glikozaminglikanlar ko'p miqdorda aniqlanishi ta'kidlangan edi. Bu o'zgarish chaqaloqlarning 12 oyligida ham saqlanib qolganligi aniqlandi, ya'ni tuxumdon po'stloq qavati primordial tuxum hujayralar atrofi va oraliq moddasida nordon glikozaminglikanlar miqdori yuqoriligicha saqlanib qolishi kuzatildi (7-rasm).




12 oylik chaqaloqlar tuxumdoni mikroskopik tekshirilganda, uning po'stloq qavatidagi primordial tuxum hujayralardan ayrimlari birlamchi follikulalarga aylanganligi aniqlanadi. Bunda, markazidagi tuxum hujayraning ham yadro, ham sitoplazmasi titilib, destruksiyalanganligi kuzatiladi. Uning atrofidagi follikula hujayralari bir-nechta qatordan iborat bo'lib, ularning ham aksariyati destruksiyalanganligi va bir-biriga nisbatan betartib joylashganligi aniqlanadi (9-rasm). Birlamchi follikulaning ham o'rtachida ham atrofida kuchli shish bo'lganligidan vakuollashganligi topiladi. Demak, chaqaloqlarning bu davrida primordial tuxum

hujayralardan ayrimlari rivojlanib, birlamchi follikulalarga aylanganligi va ularning destruksiyanib, nobud bo'lishi kuzatiladi.




7-rasm. Tuxumdon po'stloq qavatida nordon glikozaminglikanlarning mavjudligi. Bo'yoq: altsian ko'ki. Kat: 10x40.




8-rasm. Primordial tuxum hujayraning follikulaga va kista bo'shlig'iga aylanishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.

12 oylik chaqaloqlar tuxumdonining mag'iz qavati mikroskopik tekshirilganda ma'lum bo'ldiki, uning maydoni keskin kengayganligi, to'qima tuzilmalari siyraklashib, ayrim joylari shishga uchraganligi kuzatildi. Qon tomirlari oldingi davrga nisbatan biroz yiriklashganligi va ularning devori to'qima tuzilmalari yetilib, bo'yalishidagi giperxromaziya holati yo'qolganligi aniqlanadi. Mag'iz qavat to'qimasida kuchli shishga va miksamatozga uchragan maydonlar paydo bo'lganligi, ushbu sohadagi hujayralar kuchli shish natijasida sitoplazmasi vakuollashib, kengayganligi va to'r ko'rinishdagi miksamatoz to'qimaga o'xshab qolganligi aniqlanadi (9-rasm). Bunday shishga uchragan o'choqlar atrofidagi to'qima zichlashib, tolali tuzilmalari konsentratsiyalanib, ayrim joylarida gomogenlashganligi kuzatiladi. Tuxumdon mag'iz qavat to'qimasi biriktiruvchi to'qima tolalarining uchrash darajasini aniqlash uchun gistokimyoviy usul, ya'ni pikrofuksin bilan van-Gizon usulida bo'yab ko'rilganda ma'lum bo'ldiki, po'stloq qavatga nisbatan mag'iz qavati to'qimasida tolali tuzilmalar kamligi, natijada mag'iz qavat to'qimasi och rangga bo'yalganligi kuzatiladi (10-rasm).


Tuxumdon mag'iz qavatida paydo bo'lgan shish va miksamatozli o'choq markazi bo'shliqqa aylanib, kistasimon tuzilmani paydo qilganligi aniqlanadi. Ushbu bo'shliq atrofidagi biriktiruvchi to'qima gistotopografik jihatdan o'zgarib, tarkibidagi tolali tuzilmalar gomogen tuzilishga ega bo'lgan oqsilga aylanganligi, ayrim joylarida gialinozga o'xshaganligi kuzatiladi. Ushbu biriktiruvchi to'qimada qon tomirlar va hujayralari kamligi natijasida oq tanachaga aylanishi kuzatiladi (11-rasm). Tuxumdon mag'iz qavatida paydo bo'lgan birlamchi kistasimon bo'shliqlar atrofidagi to'qima altsian ko'ki bilan bo'yalganda ma'lum bo'ldiki, bevosita bo'shliq atrofidagi gialinozsimon biriktiruvchi to'qimada oqsillar ko'p va nordon moddalar kam bo'lganligidan qizil rangga bo'yalganligi aniqlanadi (12-rasm). Lekin, uning atrofidagi biriktiruvchi to'qima siyrak va nozik bo'lganligidan, unda nordon moddalar miqdori ustun turganligiddan altsian ko'ki bilan ko'kish rangga bo'yalganligi kuzatiladi. Demak, bu davrda ham to'xumdon to'qimasi nordon muhitga ega bo'lib, gidrofillik xususiyati saqlanib qolganligi aniqlanadi.



9-rasm. 12 oylik chaqaloq tuxumdon mag'iz qavati, shish va miksamatozga uchragan maydonning paydo bo'lishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x10.



10-rasm. Tuxumdon mag'iz qavati to'qimasida tolali tuzilmalarning kamligi. Bo'yoq: van-Gizon. Kat: 10x10.



Xulosa

Chaqaloqlarning 12 oylik davrida tuxumdon po'stloq qavatida primordial tuxum hujayralar miqdori sezilarli darajada kamayishi, har xil shaklga kirishi, atreziyalangan, vakuollashgan hujayralarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Bu davrda tuxumdon po'stloq qavat interstitsial to'qimasida biriktiruvchi to'qimaning ham hujayra, ham tolali tuzilmalari proliferatsiyalanib ko'payganligi tasdiqlanadi. Tuxumdon mag'iz qavati maydoni kengayib, unda shishli, miksamatozli, kistasimon bo'shliqlar va gialinozsimon to'qima o'choqlari paydo bo'lishi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alekseyev Yu.D., Ivaxina S.A., Yefimov A.A., Savenkova Ye.N., Raykova K.A. Vozrastno'ye morfologicheskoye izmeneniya organov jenskoj polovoy sistemi // Sovremenniye problemi nauki i obrazovaniya. 2016;4.
2. Bachaldin S.L. Morfometricheskoye i gistoximicheskoye osobennosti yaichnikov novorojdennix v zavisimosti ot prichin smerti: / Dis. kand. med. nauk. Vladivostok, 1994.
3. Borovaya T.G. Follikulogenez i faktori yego modulyatsii: / Dis. dokt. med. nauk. M., 1993.
4. Boyarskiy K.Yu. // Problemi reproduksii. 2002;3:36-43.
5. Volkova O.V. Funktsionalnaya morfologiya jenskoj reproduktivnoy sistemi. M., 1983.
6. Gistologiya / Pod red. Ulumbekova E.G., Chelo'sheva Yu.A. M., 2001.
7. Kvildze V.Ye. Morfofunktsionalniye osobennosti yaichnikov v protsesse stareniya organizma: / Dis. kand. med. nauk. M.,1980.
8. Kettayl V.M., Arki R. A. Patofiziologiya endokrinnoy sistemi. SPb, 2001.
9. Kovalskiy G.B., Kitayev E.M., Ro'javskiy B.Ya. Strukturniye osnovi generativnoy i endokrinnoy funktsiy yaichnikov v norme i pri patologii. SPb, 1996.
10. Kulakov V.I., Adamyan L.V. Endoskopiya v ginekologii: Rukovodstvo dlya vrachey. M., 2000.
11. Serov V.N., Kudryavseva L.I. Dobrokachestvenniye opuxoli i opuxolevidniye obrazovaniya yaichnikov. M., 1999.
12. Terexova M.N. Nekotoro'ye morfologicheskoye i gistoximicheskoye danniyе o razvitii jenskix gonad v postnatalnom ontogeneze: Dep. ruk. M., 1997.

Qabul qilingan sana 10.09.2023